

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NAZAROVA SAIDA AXMEDJANOVNA

**O‘ZBEK TILIDA SO‘Z BIRIKMALARINING LISONIY
QURILISHI VA NUTQIY VOQELANISHI**

10.00.01– O‘zbek tili

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)

Content of the abstract of doctoral dissertation (DSc)

Nazarova Saida Axmedjanovna

O‘zbek tilida so‘z birikmalarining lisoniy qurilishi va nutqiy voqelanishi.....3

Назарова Саида Ахмеджановна

Лингвистическое строение и речевое проявление словосочетаний в узбекском языке.....29

Nazarova Saida Akhmedjanovna

Word combinations with a verbal main component in the Uzbek language.....63

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....67

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NAZAROVA SAIDA AXMEDJANOVNA

**O‘ZBEK TILIDA SO‘Z BIRIKMALARINING LISONIY
QURILISHI VA NUTQIY VOQELANISHI**

10.00.01– O‘zbek tili

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.DSc/Fil282 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Buxoro davlat universiteti veb-sahifasining (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalining (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Abuzalova Mehriniso Kadirovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Muxammedova Saodat Xudoyberdiyevna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Shaxabiddinova Shoxida Xoshimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Madrahimov Ilhomjon Sobirovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi ilmiy tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «_____» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14; faks: (+99865) 221-29-14; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14; faks: (+99865) 221-29-14; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «_____» _____ da tarqatildi.
(2026-yil «_____» _____ dagi _____ -raqamli reyestr bayonnomasi)



B.E. Kilichev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.Y. Xojiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

G.I. Toirova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida turli tizimli tillar sintaksisini sistemaviy, funksional, struktural, mazmuniy, transformatsion, qiyosiy-tipologik yo‘nalishlarda o‘rganish, sintaktik birliklarni antropolingvistik paradigma asosida baholash va ularning nutqiy faoliyatdagi imkoniyatlarini aniqlashga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. So‘z birikmalarining substansial mohiyati, lisoniy va nutqiy tomonlarining dialektik birligi, ularning nutqiy voqelanishida kommunikativ, pragmatik, sotsial, milliy-madaniy omillarning ta’siri va diskursiv vazifalari yetarli darajada o‘rganilmagan. Bu esa, so‘z birikmalarining lisoniy sintaktik qurilish va nutqiy voqelanish qonuniyatlari, ularning uslubiy, pragmatik, sotsial, milliy-madaniy xususiyatlarini zamonaviy lingvistik konsepsiyalar doirasida tadqiq etish zaruratini belgilaydi.

Dunyo tilshunosligida til birliklari, xususan, sintaktik birliklarning pragma, sotsio, psixo, etno, eko, neyro, kognitiv, areal, generativ lingvistik tahlili va ilmiy yo‘nalishlarni birlashtirgan tadqiqi izchil rivojlanmoqda. So‘z birikmasining ilmiy talqinlarida to‘la yoritilmagan lisoniy sintaktik qurilishi va nutqiy imkoniyatlari substansial jihatdan ham, antropolingvistik nuqtayi nazardan ham baholanishi va nazariy asoslanishi zarur. Shunga ko‘ra, so‘z birikmasining lisoniy sintaktik qurilish qonuniyatlari, nutqiy pragmatik, uslubiy, sotsial, etnomadaniy xususiyatlarini substansial va antropolingvistik paradigmalar kesishuvida aniqlash va muammoning nazariy jihatlarini to‘liq asoslash dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda davlat tilining ilmiy-amaliy asoslarini takomillashtirish, milliy grammatikaning zamonaviy ilmiy tadqiq metodologiyasi va usullari asosida rivojlanishini ta‘minlash hamda o‘zbek tili sintaktik tizimini chuqur tadqiq etish ustuvorlashgan. Zotan, “O‘z tilini hurmat qilgan ma‘rifatli xalq boshqalarning tiliga ham chuqur hurmat bilan qaraydi”¹. O‘zbek tili qurilishiga teranroq nazar tashlash, milliy tabiatidagi o‘zlikni anglatish ehtiyoji bor ekan, so‘z birikmasi substansial, pragmatik, sotsial, etnomadaniy aspektlarda tadqiq qilinishi, jumladan, SBLSQ²lari paradigmalarini aniqlash, SBLSQlari tizimidagi invariant va variant qoliplarni belgilash, mazkur birliklarning nutqiy voqelanishini sotsial kontekstda tahlil qilish va til sohiblari nutqida pragmatik, sotsial, etnomadaniy xoslanishga ega mahsuli orqali asoslash tobora dolzarblashmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi,

¹ Мирзиёев III. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б.35.

² O‘zbek tili struktural hamda substansial sintaksisga doir ilmiy asarlar va o‘quv adabiyotlarida “llisoniy sintaktik qolip” termini shartli ravishda, qisqacha “LSQ” shaklida, “so‘z birikmasi lisoniy sintaktik qolipi” termini esa “SBLSQ” tarzida ifodalanadi. Shunga muvofiq, tadqiqotda bu terminlarning qisqa shakllaridan foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 984-son "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda aks etgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. So'z birikmasining lisoniy qurilishi va nutqiy voqelanish xususiyatlariga oid ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, University of Oxford (Buyuk Britaniya), University of Chicago (AQSH), Universite Toulouse Jean Jaures, Laboratoire de Neuro Psycho Linguistique (EA4156) – Maison de la Recherche (Fransiya), Universite de Montreal (Kanada), Monash University (Avstraliya), Humboldt-Universitat zu Berlin (Germaniya), University of Copenhagen (Daniya), The University of Tokyo (Yaponiya), Ankara University va Istanbul University (Turkiya), Moscow State Linguistic University, Institute for Linguistic Studies of the Russian Academy of Sciences, North Ossetian State University, Kazan Federal University, Bashkir State Pedagogical University (Rossiya), Azerbaijan University of Languages (Ozarbayjon), L.N.Gumilyov Eurasian National University (Qozog'iston), shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti va Buxoro davlat universitetida olib borilmoqda.

So'z birikmalarining lisoniy qurilishi va nutqiy voqelanishi yo'nalishida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan: sintaktik birliklarning struktur va funksional modellari, ularning predikativ birliklar bilan munosabati hamda grammatik shakllanish qonuniyatlari ishlab chiqilgan (Rossiya, Buyuk Britaniya); so'z birikmalarining semantik, kommunikativ va kognitiv xususiyatlari, nutqiy faoliyatdagi pragmatik imkoniyatlari yoritilgan (AQSH, Kanada); sintaktik birliklarning diskursiv voqelanishi, kommunikativ-pragmatik mexanizmlari hamda psixolingvistik asoslari aniqlangan (Fransiya, Daniya); so'z birikmalarining struktur-semantik xususiyatlari valentlik nazariyasi, tobelik sintaksisi va funksional grammatika tamoyillari asosida tavsiflangan (Germaniya); sintaktik birliklarning diskurs, madaniyat va kognitsiya bilan o'zaro bog'liqligi hamda lingvokulturologik xususiyatlari tadqiq etilgan (Yaponiya, Avstraliya, Turkiya); so'z birikmalarining lisoniy, funksional, semantik va diskursiv xususiyatlari, ularning nutqiy voqelanish qonuniyatlari qiyosiy-tipologik jihatdan tavsiflangan (Rossiya, Ozarbayjon, Qozog'iston).

Dunyo tilshunosligida so'z birikmasining lisoniy qurilishi va nutqiy voqelanishini tadqiq etish bo'yicha so'z birikmalarining lisoniy sintaktik qoliplari hamda ularning nutqiy realizatsiyasini substansial va funksional yondashuvlar

³ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://ru.m.wikipedia.org/wiki>; www.philology.ru; <http://www.dissercat.com/>; <http://en.wikipedia.org/>; <http://ru.wikipedia.org/>; <http://www.cyberleninka.ru/>; <http://az.wikipedia.org>; <http://www.jstor.org/>; [http://books/google.co.uz/https://tr.wikipedia.org/](http://books.google.co.uz/https://tr.wikipedia.org/); www.fulbright.ru va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

asosida tavsiflash, nutq vaziyati, lisoniy shaxs va pragmatik omillar bilan bog'liqligini sotsial kontekstda tahlil qilish, derivatsion, semantik va diskursiv xususiyatlarini aniqlash, nominativ imkoniyatlari negizida soha terminologiyasini takomillashtirish, kompyuter lingvistikasi va korpus tilshunosligi ehtiyojlari uchun so'z birikmasi modellarini ishlab chiqish, lisoniy sintaktik qoliplarni milliy til korpuslarida formal ifodalash va ularni avtomatik sintaktik tahlil tizimlariga tatbiq etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ustuvor yo'nalishlar sifatida rivojlanmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. So'z birikmasi sintaktik sathning birligi sifatida hozirgi davrga qadar turli ilmiy yondashuv va yo'nalishlar asosida tadqiq etilgan. Jahon tilshunosligida so'z birikmasi formal-tavsifiy, struktur, funksional-semantik, qiyosiy-tipologik, kognitiv jihatlaridan tadqiq etilib, mazkur birlikning strukturalari va tiplari, tarkibidagi qismlarning tobe-hokimlik munosabati, semantik, nutqiy, stilistik, kommunikativ, pragmatik, diskursiv, derivatsion xususiyatlari o'rganilgan. Jumladan, L.S.Barxudarov⁴, G.I.Babayeva⁵, O.Behagal⁶, T.A.Belousova⁷, V.V.Burlakova⁸, V.G.Gak⁹, I.B.Kliyenkova¹⁰, R.Quirk¹¹, S.E.Ragimxanova¹², K.Y.Sigal¹³, A.I.Smirmitskiy¹⁴, H.Sveet¹⁵, L.Tenyer¹⁶, S.G.Ter-Minasova¹⁷, M.V.Vlavatskaya¹⁸, F.U.Xaydarova¹⁹, R.Yakobs²⁰, V.N.Yarseva²¹, N.V.Yashchenko²², Y.V.Yuryeva²³, G.X.Zinnatulina²⁴, I.A.Chitao²⁵ kabi tilshunoslari

⁴ Бархударов Л.С. Грамматика английского языка / Л.С.Бархударов, Д.А.Штелинг.— Либроком, 2009.—160 с.

⁵ Бабаева Г.И. Простые и сложные субстантивные словосочетания в азербайджанском и русском языках: Автореф.диссер. ... кандидата филол. наук. — Махачкала, 2016.—25 с.

⁶ Behagal O. Die Deutsche Sprache. — Halle, 1954. — 228 p.

⁷ Белоусова Т.А., Фисунова Н.В. Субстантивные генитивные словосочетания в современном немецком языке/Научные ведомости БелГУ.2015.—№6(203). Вып.25.—С.60-65. <https://cyberleninka.ru/journal/n/voprosy-zhurnalistiki-pedagogiki-yazykoznaniiya>

⁸ Бурлакова В.В. Основы структуры словосочетания в современном английском языке. — Ленинград: изд-во ЛГУ, 1975.

⁹ Гак В.Г. К вопросу о семантической типологии словосочетаний // Сб. науч. тр. МГПИИЯ им. М.Тореза.— Москва, 1979. Вып.145.—С. 44-52.

¹⁰ Клиенкова И.Б. Лексико-грамматические свойства субстантивных словосочетаний в швейцарском варианте немецкого литературного языка (по материалам прессы): Автореф.диссер. ... кандидата филол. наук. —Москва, 2015.—25 с. <https://www.dissertac.com/content/leksiko-grammaticheskie-svoistva-substantivnykh-slovosochetanii-v-shveitsarskom-variante-nem/read>

¹¹ Quirk R. Grammar of Contemporary English. 3rd ed. — London: Longman, 1993. — 1081 p.

¹² Рагимханова С.Э. Синтаксические модели субстантивных словосочетаний в азербайджанском языке//Вестник Адыгейского государственного университета. Сер. Филология и искусствоведение. — Майкоп, 2009. Вып.3.— С. 204-209.

¹³ Сигал К.Я. Теория словосочетания и речевая деятельность. —Ярославль: Канцлер, 2020. — 418 с. <https://iling-ran.ru/seagal/teoriaslovosochetania.pdf>

¹⁴ Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка. — Москва: Из-во иностранной литературы, 1957. —286 с.

¹⁵ Sweet H. New English Grammar. Logical and Historical. — Oxford: Clarendon Press, 2007. — 510 p

¹⁶ Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. — Москва: Прогресс, 1988. — 656 с.

¹⁷ Тер-Минасова С.Г., Аветисян Н.Г. О соотношении номинативных и предикативных единиц в современном английском языке. —С.184-193. http://www.ysu.am/files/17S_Minasova_N_Avetisyan_r.pdf

¹⁸ Влавацкая М.В. Изучение сочетаемости слов в русской лингвистической традиции (XVII-XIX вв.) //Альманах современной науки и образования.—Тамбов: Грамота, 2008. №8(15): в 2-х ч. Ч. I. ISSN 1993-5552. — С. 40-49. www.gramota.net/materials/1/2008/8-1/14.html

¹⁹ Хайдарова Ф.У. Структурно-семантические особенности свободных словосочетаний в таджикском и английском языках: Автореф.диссер. ... кандидата филол.наук.—Душанбе, 2018.—27 с. <https://www.dissertac.com/content/strukturno-semanticheskie-osobennosti-svobodnykh-slovosochetanii-v-tadzhikskom-i-angliiskom/read>

²⁰ Jacobs R. English Syntax. — Oxford: Oxford University Press, 1995. — 378 p.

²¹ Ярцева В.Н. Предложение и словосочетание // В книге: Вопросы грамматического строя. — Москва: Изд-во АН, 1955. — 144 с.

²² Ященко Н.В. Свободное словосочетание как способ номинации лиц женского пола в современном немецком языке/Балтийский гуманитарный журнал. 2018.—№2(23).Т.7.—С.107-111. <https://cyberleninka.ru/journal/n/baltiyskiy-gumanitarnyy-zhurnal>

tadqiqotlarida ingliz, nemis, rus, ozarbayjon, adigey, tojik, tatar tillaridagi soʻz birikmalarining struktur, semantik, tipologik, nominativ, leksik-morfologik, uslubiy differensial jihatlari, soʻz birikmasining erkin birikmalik tabiati, gap strukturasi bilan aloqadorligi, predikatsiyaga munosabati, sodda va murakkab tuzilishli, atributiv, genitiv, substantiv-substantiv, substantiv-genitiv turlari aniqlangan.

Soʻz birikmasi sintaksisi masalalari oʻtgan asrda rus tilshunoslari – A.X.Vostokov, F.F.Fortunatov, A.M.Peshkovskiy, A.A.Shaxmatov, V.V.Vinogradov, V.P.Suxotin, T.P.Lomtev, O.S.Axmanova, N.K.Prokopovich²⁶, turkiyshunoslar – A.N.Kononov, S.N.Ivanov, N.A.Baskakov, E.V.Sevortyan, S.S.Mayzel, Y.A.Potseluyevskiy, N.Z.Gadjiyeva²⁷, shu bilan birga, oʻzbek va boshqa turkiy tillar nazariyotchilari – M.Balakayev, M.Zakiyev, E.I.Ubryatova, Y.Seidov, X.Komilova, A.Abdullayev, A.Koklyanova, A.Gʻulomov, M.Asqarova, X.Xoliyorov, A.Safayev, F.Ibrohimova, F.Abdullayev, I.Rasulov, M.Sharipov, A.Chariyev, A.Berdialiyev, H.Nosirovlar²⁸ tomonidan tadqiq etilgan. Oʻzbek

²³ Юрѳева Е.В. Английские субстантивно-субстантивные словосочетания в стилевой дифференциации языка: Диссертация ... кандидата филол. наук.–Москва, 2009. –156 с. <http://www.dslib.net/germanskie-jazyki/anglijskie-substantivno-substantivnye-slovosochetaniya-v-stilevoj-differenciacii.html>

²⁴ Зиннатуллина Г.Х. Типы и функции апеллятивных идентификаторов (на примере художественных текстов татарской литературы)//Сибирский филологический журнал. 2013.–С.227-231. <https://cyberleninka.ru/article/n/tipy-i-funktsii-apellyativnyh-identifikatorov-na-primere-hudozhestvennyh-tekstov-tatarskoy-literatury/pdf>

²⁵ Читао И.А. Структурные и семантические особенности словосочетаний в английском, русском и адыгейском языках. <http://vestnik.adygnet.ru/files/2012.4/2264/chitao20124.pdf>

²⁶ Сухотин В.П. Проблема словосочетания в современном русском языке// Вопросы синтаксиса современного русского языка. –Москва, 1950. –С.127-177.; Виноградов В.В. Вопросы изучения словосочетаний //Вопросы языкознания. – Москва,1954, №3. – С.3-24.; Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении.– Москва: Учпедгиз, 1956. – 511 с.; Фортунатов Ф.Ф.О преподавании грамматики русского языка. Избранные труды. Т. II. – Москва, 1957. – 451 с.; Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. – Ленинград, 1941. – 465 с.; Ахманова О.С. Словосочетание// Вопросы грамматического строя. – Москва: АН СССР, 1955. – С.452-460.; Ломтев Т.П. Основы синтаксиса современного русского языка. – Москва: Госучпедгизд, 1958. – 165 с.; Прокопович Н.Н. Словосочетания в современном русском литературном языке. – Москва: Просвещение, 1966. – 400 с.

²⁷ Кононов А.Н. Грамматика современного турецкого литературного языка. – Москва-Ленинград: АН СССР, 1956. – 569 с.; Баскаков Н.А. Историко-типологическая характеристика структуры тюркских языков. – Москва: Наука, 1975. – 287 с.; Иванов С.Н. Очерки по синтаксису узбекского языка. – Ленинград: ЛГУ, 1959. – 151 с.; Севортян Э.В. К соотношению грамматики и лексики в тюркских языках//Вопросы теории и истории языка.– Москва, 1952.–С.312-330; Майзель С.С. Изафет в турецком языке. – Москва-Ленинград: АН СССР, 1957.–186 с.; Поцелуевский Е.А. Тюркский трехчлен.– Москва: Наука, 1967. –135 с.; Гаджиева Н.З. Природа изафета в тюркских языках // Советская тюркология. – Баку, 1970.–№2. –С.18-26.

²⁸ Балакаев М.Б. Основные типы словосочетаний в казахском языке. – Алма-ата: АН КазССР, 1957. –123 с.; Закиев М.З. Синтаксический строй татарского языка. –Казань: КГУ, 1963.–464 с.; Убрыатова Е.И. Исследование по синтаксису якутского языка. –Москва-Ленинград: АН СССР, 1950. –304 с.; Сеидов Ю.М. Словосочетания в азербайджанском языке: Диссер... канд. филол. наук. – Баку, 1965. –111 с.; Комилова Х. Гапда сўзларнинг боғланиши. – Тошкент: Фан, 1955. – 27 б.; Абдуллаев А.Б. Глагольные словосочетания в современном узбекском литературном языке: Автореф.дис...канд.филол.наук. – Самарканд, 1959. –17 с.; Коклянова А.А. Глагольные словосочетания в узбекском языке//Исследования по синтаксису тюркских языков. – Москва, 1962. – С.39-100.; Фуломов А., Аскарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987.–256 б.; Халияров Х. Именные словосочетания в современном узбекском языке: Автореф. дис...канд.филол.наук. – Самарканд, 1966. –25 с.; Сафаев А. Исследование по синтаксису узбекского языка.–Ташкент: Фан, 1968. –161 с.; Иброхимова Ф. Ҳозирги ўзбек тилида от бошқаруви: Филол. фанлари номзоди... дис. – Тошкент, 1972.–172 б.; Абдуллаев Ф. Сўзлар ўзаро қандай боғланади? – Тошкент: Фан, 1974.–76 б.; Расулов И. Сўз бирикмаси масаласи// Ўзбек тили ва адабиёти.–Тошкент, 1978.–№2.–В.36-39.; Шарипов М. Ҳозирги ўзбек тилида сўз бирикмалари синтаксиси масаласи.–Тошкент: Фан, 1978.–88 б.; Чариев А. Структурно-морфологическая и лексико-грамматическая характеристика притяжательной конструкции с родительными падежами в узбекском языке//Советская тюркология.–Баку, 1975.–№6.–С.11-20.; Бердиалиев А., Носиров Х. Ўзбек тили изофали конструкцияларининг баъзи масалалари// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. –№3. – Б.17-19.; Абдуллаев Ф., Иброхимова Ф. Ўзбек тилида бошқарув.– Тошкент: Фан, 1982.–140 б.

tilshunosligida XX asrning 50-yillaridan boshlab davom etib kelayotgan formal grammatik tadqiqotlarda soʻz birikmasi nutq bosqichida mufassal oʻrganilgan, nutqiy sintaktik xususiyatlari keng va atroflicha tavsiflangan. Soʻz birikmalarining tuzilishi, tobelanishning moslashuv, boshqaruv, bitishuv usullari, bosh soʻzning muayyan soʻz turkumiga mansubligiga koʻra turlari, gap qurilishining “xomashyosi” hisoblanishi toʻgrisidagi ilmiy dalillar empirik bosqichda formal sintaktik taʼlimotni yuzaga keltirdi.

Soʻz birikmasi sintaksisining empirik bosqichdagi talqini ilmiy tahlilning nazariy bosqichiga oʻtish uchun zarur. Zero, XX asrning 70-yillarigacha roman-german, slavyan tillari andazalari asosida shakllangan oʻzbek formal grammatikasi soʻz birikmalarining struktur va substansial tahliliga zamin hozirladi.

Oʻzbek tilshunosligida substansial yoʻnalish oʻtgan asrning 70-yillarida maydonga kelib, XXI asr boshida fanning nazariy poydevorini yangilovchi ilmiy gʻoyalarni tilning barcha birliklari, xususan, soʻz birikmasini oʻrganishga doir empirik bilimlar zaminida bunyod etgan. Bu til tizimi va birliklari tadqiqida yangi taʼlimot hamda oʻzbek substansial tilshunosligi shakllanishi uchun asos boʻldi. Pirovardida, substansial tahlil asoslari milliy til qurilishi mohiyatini bilishning ratsional bosqichida ochib berdi va substansial sintaksis nazariyasini shakllantirdi. Substansial sintaktik taʼlimot lingvistik tafakkur taraqqiyotida idrokiy bilish natijasi boʻlib, soʻz birikmasining lisoniy mohiyatini aniqlash, lison-nutq farqlanishida oʻrganish ehtiyojidan kelib chiqqan. Hozirga qadar soʻz birikmasi tobe va hokim aʼzolari mavqeyidagi soʻzlarning birikish omillari va usullari oʻrganilgan, 16 xil SBLSQi mavjudligi, ular til sathida soʻz birikmasi qurilishini umumlashtirishiga doir ilmiy xulosalar bu taʼlimotda oʻz aksini topgan. Shunga qaramay, soʻz birikmasi lisoniy qurilishini paradigmatic, iyerarxik, munosabatlar asosida oʻrganish, SBLSQlari paradigmalari, yetakchi aʼzolari, invariant va variant LSQlarni ajratish, shuningdek, uning nutqiy voqelanishi, turli nutq shakllarida qoʻllanishi, bunda pragmatik, sotsial, milliy madaniy qirralarni aks ettirishi kabi masalalar tadqiq etilmagan. Shunga koʻra, ushbu tadqiqotda soʻz birikmasi lisoniy qurilishini substansial sintaksis nazariyasi negizida oʻrganish va uning nutqiy voqelanishini uslubiy, lingvopragmatik jihatlardan tahlil qilish koʻzda tutilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining 2020-2026-yillarga moʻljallangan “Oʻzbek tilshunosligida til, shaxs, jamiyat munosabati va tilning substansial tadqiqi masalalari” mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar rejasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oʻzbek tilidagi soʻz birikmalari lisoniy qurilishini substansial lingvistika nuqtayi nazaridan tahlil qilish va soʻz birikmasining nutqiy voqelanish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oʻzbek tilidagi soʻz birikmalarini oʻrganish bosqichlari, formal grammatik tahlili masalalari va tadqiq muammolarini yoritish;

soʻz birikmasining substansial tadqiqi nazariy asoslarini tavsiflash va bu yoʻnalishda mavjud muammolarni aniqlashtirish;

soʻz birikmasi tarkibi, tuzilishi, tasnifiga doir ilmiy qarashlarni baholash hamda soʻz birikmasi tarkibiy qismlarining ikki yoqlama bogʻlanishi va doimiy ikki aʼzolikligi masalasini yoritish;

soʻz birikmasi tobe va hokim aʼzolarining birikish omillari va usullari lisoniy sathda soʻz birikmasi mantiqiy-riyoziy turlari va LSQlarini belgilashini asoslash;

soʻz birikmasi lisoniy qurilishini paradigmatic va iyerarxik munosabatlar asosida tahlil qilish, shuningdek, SBLSQlari paradigmalarini aniqlash va yetakchi aʼzolarini belgilash;

lisoniy invariantlik va variantlikning SBLSQlarida namoyon boʻlishini asoslash hamda soʻz birikmasi lisoniy iyerarxiyasidagi sintaktik invariant va variant birliklarni ajratish;

nutqda nominativ birliklarning atash vazifasi, uslubiy, pragmatik xoslanishini soʻz birikmalari orqali dalillash, ularning nutqiy qoʻllanilishiga pragmatik omillar taʼsiri va soʻz birikmalariga xos uslubiy, pragmatik xususiyatlarni aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida oʻzbek tilida soʻzlashuvchilar nutqida voqelashuvchi soʻz birikmalari olingan.

Tadqiqotning predmetini soʻz birikmalarining lisoniy sintaktik, semantik, nutqiy, uslubiy, pragmatik, sotsial xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda struktural, substansial, modellashtirish, qiyoslash, tavsiflash, lingvopragmatik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oʻzbek tilshunosligida soʻz birikmalarining substansial tahliliga doir nazariy-metodologik tamoyillar takomillashtirilib, sintaktik aloqaning ikki yoqlamaligi, birikmalarining kengayishi, soʻz birikmalarining barcha turlarida ikki aʼzolilikning saqlanishi asoslangan;

soʻz birikmasining shakllanishida soʻzlarga birikish va biriktirish imkoniyatlarini beruvchi valentlik nazariyasi asosida tobe va hokim mavqeyidagi soʻzlarning bogʻlanishini maʼnoviy, shakliy, joylashuv omillari taʼminlashi, bu omillar birikish usullari, soʻz birikmasining mantiqiy-riyoziy turlari va LSQlarini belgilashi asoslab berilgan;

lisoniy paradigmatic munosabatning soʻz birikmasi qurilishida aks etishi, SBLSQlari paradigmalari, ushbu paradigmalarining yetakchi aʼzolari, SBLSQlari munosabatida invariantlik-variantlikning mavjudligi, soʻz birikmasi lisoniy iyerarxiyasini tashkil etuvchi sintaktik invariant va variant birliklar aniqlangan;

soʻz birikmalari muayyan LSQlar mahsuli sifatida nutqda til sohiblarining kommunikativ ehtiyoji tufayli yuzaga kelishi, nolisoniy, xususan, sotsial, milliy-madaniy omillar taʼsirida faollashuvi va nutqiy xoslanishi oʻzbek tili uslubiy shakllarida kuzatilgan nutqiy variantlari orqali dalillangan;

nutq tizimida sintaktik birliklarga xos nomlash vazifasi pragmatik omillar tomonidan boshqarilishi hamda soʻz birikmalarining pragmatik xoslanishi va imkoniyatlari turli nutq tuzilmalari va muloqot shakllarida voqelashgan SBLSQ hosilalari misolida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

soʻz birikmalarining lisoniy qurilishi va nutqiy voqelanishini lison-nutq farqlanishida oʻrganish tilning lisoniy sintaktik imkoniyatlarini belgilash va milliy til qurilishiga xos qonuniyatlarni aniqlashga imkon bergan, oʻzbek tilining substansial sintaksisi nazariy asoslarini boyitib, oʻzbek lingvopragmatikasi, sotsiolingvistikasi, lingvokulturologiyasi, sintaktik stilistikasi, matn lingvistikasini muhim ilmiy maʼlumotlar bilan takomillashtirgan;

soʻz birikmasi va uning turlarini shakllantiruvchi maʼnoviy, shakliy, joylashuv omillari, birikish usullari hamda LSQlar til egalari va oʻzbek tilini oʻrganuvchilarning nutq faoliyatida soʻz birikmalarining turli koʻrinishlarini hosil qilish, maʼnoviy turlari va ularning imkoniyatlaridan foydalanishda samara berishi asoslangan;

soʻz birikmalari substansial tahlili natijalaridan “Hozirgi oʻzbek adabiy tili”, “Nazariy tilshunoslik”, “Pragmalingvistika”, “Sotsiolingvistika”, “Oʻzbek tili uslubiylati” fanlariga doir oʻquv adabiyotlari mukammallashuvida foydalanilgan;

tadqiqot natijalari filologiya yoʻnalishi boʻyicha tahsil olayotgan talabalar, ilmiy tadqiqotchilar va soha mutaxassislarining bilim va malakasini oshirishda manba vazifasini oʻtagan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy yondashuv va nazariy asoslar aniq ilmiy manbalardan olinganligi, muammo tadqiqi ilgʻor ilmiy konsepsiya va lingvistik tahlil metodologiyasiga asoslanganligi, tahlil natijalari struktural, substansial, modellastirish, qiyoslash, tavsiflash, lingvopragmatik usullar orqali aniqlanganligi, nazariy fikr va xulosalar amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oʻzbek tili sintaksisi nazariyasini rivojlantirish, soʻz birikmasi substansial tadqiqiga doir ilmiy asoslarni boyitish, soʻz birikmasining substansial-antropolingvistik tadqiqi muammolarini yechishda muhim manba sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy taʼlim tizimida “Nazariy tilshunoslik”, “Hozirgi oʻzbek adabiy tili”, “Pragmalingvistika”, “Oʻzbek tili uslubiylati”, “Sotsiolingvistika”, “Lingvokulturologiya”, “Matn lingvistikasi” fanlari boʻyicha oʻquv adabiyotlarini tayyorlash, maʼruza, amaliy, seminar mashgʻulotlari, maxsus kurslarni oʻtishda foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oʻzbek tilidagi soʻz birikmalarining lisoniy qurilishi va nutqiy voqelanishini tadqiq qilish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

lisoniy paradigmatic munosabatning soʻz birikmasi qurilishida aks etishi, SBLSQlari paradigmalari, ushbu paradigmalarning yetakchi aʼzolari, SBLSQlari munosabatida invariantlik-variantlikning mavjudligi, soʻz birikmasi lisoniy iyerarxiyasini tashkil etuvchi sintaktik invariant va variant birliklar aniqlanishi bilan bogʻliq xulosalardan FA-F1-G003 “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional soʻz yasalishi”, FA-A1-G007 “Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida” mavzularidagi fundamental va ilmiy-amaliy loyihalarda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 26-dekabrda 626/1-son maʼlumotnomasi). Natijada loyiha materiallari, monografiya, maqola, tezislar va turkiy tillardagi matnlarda nutqiy birliklarning farqlari, qurilish modellari tadqiqi soʻz birikmalarining lisoniy va nutqiy xususiyatlariga oid yangi ilmiy maʼlumotlar bilan boyitilgan;

soʻz birikmasining shakllanishida soʻzlarga birikish va biriktirish imkoniyatlarini beruvchi valentlik nazariyasi asosida tobe va hokim mavqeyidagi soʻzlarning bogʻlanishini maʼnoviy, shakliy, joylashuv omillari taʼminlashi, bu omillar birikish usullari, soʻz birikmasining mantiqiy-riyoziy turlari va LSQlarini belgilashiga doir nazariy fikrlardan IL-402104209 raqamli “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – oʻzbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihada (2022-2024-y.) foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 27-dekabrda 04/1-4362-son maʼlumotnomasi). Natijada

soʻz birikmasi tarkibidagi soʻzlarni lingvistik (morfologik) teglash muammolarini yechishda nazariy asos sifatida xizmat qilgan;

oʻzbek tilshunosligida soʻz birikmalarining substansial tahliliga doir nazariy-metodologik tamoyillar takomillashtirilib, sintaktik aloqaning ikki yoqlamaligi, birikmalarining kengayishi, soʻz birikmalarining barcha turlarida ikki aʼzolilikning saqlanishi, shuningdek, valentlik nazariyasi soʻzlarga birikish va biriktirish imkoniyatlarini berishi, tobe va hokim mavqeyidagi soʻzlar maʼnoviy, shakliy, joylashuv omillari asosida bogʻlanishi, bu omillar birikish usullari, soʻz birikmasi LSQlarini belgilashi asoslangan xulosalardan 60230100 – Filologiya va va tillarni oʻqitish: oʻzbek tili bakalavriat taʼlim yoʻnalishi uchun moʻljallangan “Hozirgi oʻzbek tili (Sintaksis)” darsligini tayyorlashda foydalanilgan (Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-232-raqamli guvohnomasi; Buxoro davlat universitetining 2025-yil 13-noyabrdagi 02/7052-son maʼlumotnomasi). Natija darslikning takomillashuviga xizmat qilgan;

soʻz birikmasi qurilishida lisoniy paradigmatic munosabatning aks etishi, SBLSQlari paradigmalari, ushbu paradigmalarining yetakchi aʼzolari, SBLSQlari munosabatida invariantlik-variantlikning mavjudligi, soʻz birikmasi lisoniy iyerarxiyasini tashkil etuvchi sintaktik invariant va variant birliklar bilan bogʻliq nazariy fikrlardan 60230100 – Filologiya va tillarni oʻqitish (oʻzbek tili) bakalavriat taʼlim yoʻnalishi uchun moʻljallangan “Oʻzbek tili sintaksisi” darsligini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro davlat universitetining 2024-yil 11-noyabrdagi 711-42-raqamli guvohnomasi. Buxoro davlat universitetining 2025-yil 13-noyabrdagi 02/7050-son maʼlumotnomasi). Natijada darslikda soʻz birikmasiga oid nazariy asoslar mukammallashgan;

nutq tizimida sintaktik birliklarga xos nomlash vazifasi pragmatik omillar tomonidan boshqarilishi hamda soʻz birikmalarining pragmatik xoslanishi va imkoniyatlari turli nutq tuzilmalari va muloqot shakllarida voqelashgan SBLSQ hosilalari misolida isbotlanishiga oid nazariy fikrlardan 60230100 – Filologiya va tillarni oʻqitish (oʻzbek tili) bakalavriat taʼlim yoʻnalishi uchun moʻljallangan “Hozirgi oʻzbek tili (Sintaksis)” oʻquv qoʻllanmasini tayyorlashda foydalanilgan (Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2022-yil 17-martdagi 106-231-raqamli guvohnomasi. Buxoro davlat universitetining 2025-yil 13-noyabrdagi 02/7051-son maʼlumotnomasi). Natijada oʻquv qoʻllanmasidagi soʻz birikmasi talqiniga doir maʼlumotlar nazariy va amaliy jihatdan boyitilgan.

soʻz birikmalari muayyan LSQlar mahsuli sifatida nutqda til sohiblarining kommunikativ ehtiyoji tufayli yuzaga kelishi, nolisoniy, xususan, sotsial, milliy madaniy omillar taʼsirida faollashuvi va nutqiy xoslanishi oʻzbek tili uslubiy shakllarida kuzatilgan nutqiy variantlari orqali dalillangan nazariy va amaliy xulosalardan Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati boʻlimi huzuridagi yosh ijodkorlarning “Nilufar” adabiy toʻgaragi mashgʻulotlarini tashkil qilishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati boʻlimining 2025-yil 19-avgustdagi 12-son maʼlumotnomasi). Natijada adabiy toʻgarak mashgʻulotlarining mazmuni poetik nutqda soʻz birikmalari badiiy tasvir va ifoda vositalarini hosil qilishi, nutqiy, uslubiy xoslanishiga oid ilmiy dalillar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro, jumladan, 9 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan oʻtgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta monografiya, O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola (shu jumladan, 10 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda) nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to’rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar hamda shartli belgilar va atamalar ro’yxatlaridan iborat. Umumiy hajmi 237 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, ilmiy va amaliy ahamiyati belgilangan. Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo’nalishlariga mosligi ko’rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatitsiyasi, natijalari, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O’zbek tilshunosligida so’z birikmasining o’rganilishi”** deb nomlanadi. Bobning *“So’z birikmasi lingvistik tadqiq obyekti sifatida”* nomli birinchi bo’limida so’z birikmasi tadqiqiga doir masalalar o’rganildi, mazkur sintaktik birlikni o’rganishdagi yondashuvlar, sintaktik ta’limotlar, ilmiy qarashlar, tadqiq usullari va nazariy asoslar tahlil qilindi.

O’zbek tilshunosligida barcha til birliklari kabi, so’z birikmasi ham ilmiy bilishning empirik bosqichida o’rganilgan: kuzatishda berilgan xususiyatlari tavsiflangan; tashqi, zohiriy belgilari, tuzilishi, hosil bo’lish usullari va yo’llari, turlari va xillari aniqlangan; muayyan ko’rinishlari asosida dalillar yig’ilgan. O’zbek tili so’z birikmasi sintaksisi turli nuqtayi nazarlardan tadqiq qilingan va bir-biridan farqli nazariyalar shakllangan. Fanda “taraqqiyot ikki zaruriy dialektik bosqichdan iborat bo’ladi: birinchi bosqich – o’rganilayotgan manba, uning bo’limlari va tarkibiy qismlari, belgi-xususiyatlarini aniqlash, ularni saralash, izchillashtirish va tasvirlash. Bu hali tom ma’noda ilmiy tahlil emas, lekin ilmiy o’rganishning zaruriy tarkibiy qismidir²⁹. Ushbu bosqichdagi tadqiqotlar formal mantiq va empirik bosqich tahlil asoslarida olib boriladi. So’z birikmasining formal grammatik tahlili buning isbotidir. “O’zbek tili grammatikasi”da tavsiflanishicha, “so’z birikmasini tashkil qilgan komponentlar mustaqil ma’noli so’zlar bo’lib, o’z ma’nolarini saqlagan holda boshqa birikmani hosil qilishda ishtirok etishlari mumkin, ya’ni so’z birikmasida qatnashgan komponentlar doim harakatda bo’ladi, so’z birikmalarining dinamik xarakteri shu narsa bilan belgilanadi³⁰. So’z birikmasi empirik bosqichda “mazmun jihatidan birlikni tashkil qilgan va til qoidalariga ko’ra ajratilgan so’zlar gruppasi; tobelanish munosabatiga kirishgan birdan ortiq leksik birliklarning qo’shilmasi”³¹ deb baholangan. Shuningdek, “tilda mavjud bo’lgan formal ko’rsatkichlar, til vositalarining yig’indisi (affiks, yordamchi so’z, ko’makchi, so’z tartibi, intonatsiya) so’z birikmasi formalariga kirishi va so’zlar o’rtasidagi sintaktik munosabatlarni

²⁹ Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – В.5.

³⁰ Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. – Тошкент: Фан, 1976. – В.18.

³¹ Ko’rsatilgan manba. – В.18.

ifodalash usullari – moslashuv, boshqaruv, bitishuvni o‘z ichiga olishi”³² urg‘ulangan. So‘z birikmasi tavsifidagi chigalliklar, tahlildagi mahdudlik uning formal grammatik yo‘sinda yetarlicha o‘rganilmaganligidan darak beradi.

O‘zbek formal grammatikasida sintaktik birliklarning yuzaga kelishi va qurilishi o‘rganilgan. Formal sintaksis asoslarini qamrab olgan, oliy ta’limda XX asrning oxirigacha amalda bo‘lgan darsliklarda “tilda gap va so‘z birikmalarining abstrakt, umumlashgan modellari bo‘lishi, shu modellar asosida nutqda sintaktik konstruksiyalar hosil qilinishi; so‘z birikmasining ayrim modellari: 1) sifatlovchi+sifatlanmish; a) sifat+ot; b) ot+ot; 2) qaratuvchi+qaralmish (ot+ot)”³³ qayd etilgan. Modellashirish metodi belgilaydigan mezonlarga ko‘ra “sifat+ot” va “ot+ot” [belgi-predmet] ma’noli, [qaratuvchi-qaralmish] munosabatini ifodalovchi so‘z birikmalarining til sathidagi umumiy qurilishini aks ettirmaydi. Chunki sintaktik modelga formal yondashuv lisoniy sintaktik birlik mohiyatini aniqlashga imkon bermaydi. Tobelanish aloqalarini belgilashda aloqaning mazmun tomoni, formal ko‘rsatkichlarigina so‘z birikmasidagi tobelanish tabiatini ochib bermaydi. Sababi, ilmiy yondashuv va tahlil usullarining empirik xarakterga egaligidir. Holbuki, formal grammatika tadqiq obyektiga oddiy mantiq (formal logika) qonunlari va tahlil mezonlari asosida yondashadi, til hodisasining kuzatishda berilgan xususiyatlariga tayanadi.

Jahon va rus tilshunosligida so‘z birikmasiga doir ilmiy izlanishlar natijasi uning o‘zbek tilidagi tadqiqiga zamin bo‘ldi. Mustaqillik davrigacha o‘zbek tilshunosligida til hodisalari rus tilshunosligidagi ilmiy andazalar asosida tavsiflanib, tilimizning milliy xususiyatlari inobatga olinmagan. So‘z birikmasi sintaksisiga oid formal grammatik ta’limotning shakllanishida rus tilshunosligi katta rol o‘ynagan. So‘z birikmasi “ikki mustaqil so‘zning birikishi” (F.F.Fortunatov), “sodda gapga teng bo‘lgan so‘zlar birlashmasi” (A.N.Peterson), “so‘zlarning turli bog‘lanishlari hamda gap” (A.M.Peshkovskiy), “gapning ikkinchi darajali bo‘laklari” (A.A.Shaxmatov), deb qaralgan³⁴. Keng ma’noda frazeologizm, termin, toponim, ergash va teng birikmalar, mustaqil va yordamchi so‘zlardan hosil bo‘lgan birikmalar so‘z birikmasi sanalgan. So‘z birikmasining turlicha talqini ilmiy yondashuv va qarashlardagi ziddiyatdan dalolat beradi. XX asrning oxiriga qadar o‘zbek tilshunosligida so‘z birikmasi rus tilshunosligidagi ilmiy yondashuv va asoslar, V.V.Vinogradov qarashlari negizida talqin etildi, so‘z birikmasi tadqiqida formal sintaktik ta’limotni shakllantirdi. V.V.Vinogradov ta’limotida so‘z birikmasi nopredikativ sintaktik qurilmaligi ta’kidlansa³⁵ ham, lisoniy qurilishiga e’tibor qaratilmadi. O‘zbek tilshunosligida mustaqillik davriga qadar rus tilshunosligidagi so‘z birikmasiga oid ilmiy asoslar, formal grammatik qarashlar o‘zbek tilidagi so‘z birikmasi masalalarini o‘rganishda tatbiq etilib, bu sintaktik birlikning nutq bosqichidagi tadqiqida nazariy asoslarga aylangan.

Ushbu bobning “*So‘z birikmasi tadqiqidagi muammolar*” nomli ikkinchi bo‘limida so‘z birikmasida tobe va hokim a’zolar munosabati, tobelanish usullari, so‘z birikmasini tasniflash bilan bog‘liq masalalar tahlil qilindi.

³² Ko‘rsatilgan manba. – B.19.

³³ Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – В.9; 20.

³⁴ Сухотин В.П. Проблема словосочетания в современном русском языке//Вопросы синтаксиса современного русского языка.– Москва,1950. – В.127-147.

³⁵ Четин, Мустафа. Ҳозирги ўзбек ва турк тилларида сўз бирикмалари деривацияси: Филол. фанлари номзоди... диссер. автореф. – Тошкент, 2002. – В.6.

Sintaktik aloqa usullari uning vositalariga qarab belgilanadi. Sintaktik aloqa vositalari – kelishik, egalik, shaxs-son kabi kategorial formalar, yordamchi soʻzlar, soʻz tartibi va ohang ikki soʻzdan birining tobe, ikkinchisining hokimligini koʻrsatadi. Tobelanish shu vositalardan biri orqali ifodalanadi. Soʻz birikmasi (kamida) ikki mustaqil soʻzning leksik-grammatik, formal-grammatik yoki tartib vositasida tobelanishidan hosil boʻladi. Doimo qatʼiy sintaktik [tobe-hokim] qolipi asosida quriladi. Tobe aloqa sintaktik jihatdan biri ikkinchisiga boʻysunuvchi, biri ikkinchisini aniqlovchi soʻzlar munosabatini ifodalaydi, bir unsur ikkinchisiga nisbatan tobe, ikkinchisi esa unga nisbatan hokim vaziyatda boʻladi³⁶. Hokim-tobelik holati qoʻshilishning tabiatidan, qismlarning grammatik xususiyatlaridan, shakliy koʻrsatkichlar va maʼnodan bilinib turadi³⁷. Oʻzbek formal grammatikasida “tobe soʻz shakli hokim soʻzga, uning talabiga qarab oʻzgaradi”³⁸ taʼrifi bilan kifoyalanilgan. Tobelanishni faqat tobe soʻzning hokimga munosabati asosida baholash hokim soʻzning tobega munosabatini mavhumlashtirgan, demak, tobe va hokim aʼzolar munosabati bir yoqlama talqin etilgan.

Tobe soʻzning shakllanishiga koʻra tobelanishning uch yoʻli– moslashuv, boshqaruv, bitishuv farqlangan. Boshqaruvda “tobe soʻz hokim soʻzning talabi bilan maʼlum formaga kiradi: tobe soʻz yo biror kelishik qoʻshimchasini oladi, yo koʻmakchi bilan birga keladi”³⁹. Shakliy vosita yolgʻiz oʻzi aloqani yuzaga chiqara olmaydi. Tobening hokimdan oldin joylashishi – qatʼiy soʻz tartibi borligi, soʻzlarning mazmunan muvofiqligi hisobga olinishi lozim. Biroq boshqaruv “tobe soʻzning hokimga munosabatini kelishik formasi bilan ifodalash”⁴⁰, “bir soʻz ikkinchisiga oʻz tobeligini kelishik yoki koʻmakchi bilan bildirishi”⁴¹, yaʼni tobe soʻzning morfologik koʻrsatkichlariga qarab belgilandi. Tobe soʻzning hokim soʻzga tashqi tomondan bir yoqlama bogʻlanishi tavsiflandi-yu, hokim soʻzning tobega munosabati “uning talabi”ni kuzatish bilan cheklanildi.

Moslashuvda soʻz birikmasining bir aʼzosi oʻz shaklini ikkinchi aʼzosining maʼnosiga muvofiq oʻzgartiradi⁴², bu aloqada tobe soʻz oʻz shaklini hokim shakliga tenglashtiradi, ... muvofiqlashtiradi⁴³. Moslashuv ikki soʻz shaklining atributiv va soʻzlarning predikativ munosabati sifatida tavsiflangan. Tobe va hokim soʻzlarning qaratqich kelishigi va egalik shaklida moslashuvi “izofa” termini bilan yuritilgan. Arab tilida bir ismning ikkinchisiga qoʻshilishi, yaʼni bir ismning qaratqich kelishigida turgan ikkinchi ism orqali aniqlanishi izofadir⁴⁴. Turkiy tillarda moslashuv faqat III izofali qurilmalardagina namoyon boʻladi⁴⁵. Moslashuvda yaqqol koʻrinuvchi ikki yoqlama shakliy munosabat soʻz birikmasi aʼzolari bogʻlanishini zohiran ifodalaydi, bu esa, tobe va hokim aʼzolar aloqasidagi botiniy, lisoniy tomonlar aniqlanishini taqozo qiladi. Har qanday atama (izofa yoki moslashuv) hodisa nomi boʻlib, nomni oʻzgartirish bilan mohiyat ochilmaydi.

³⁶ Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. – Тошкент: Фан, 1976. – В.14.

³⁷ Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – В.23.

³⁸ Фуломов А., Асқарова М. Коʻrsatilgan manba. – В.23.; Ўзбек тили грамматикаси. Коʻrsatilgan manba. – В.14.

³⁹ Ўзбек тили грамматикаси. Коʻrsatilgan manba. – В.14.

⁴⁰ Убрятова Е.И. Исследование по синтаксису якутского языка. – Москва-Ленинград: АН СССР, 1950. – В.55.

⁴¹ Скобликова Е.С. Согласование и управление в русском языке. – Москва: Просвещение, 1971. – В.20-21.

⁴² Убрятова Е.И. Согласование в якутском языке//Исследование по синтаксису тюркских языков. – Москва, 1962. – С.101-188.

⁴³ Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. – Тошкент: Фан, 1976. – В.15.

⁴⁴ Баскаков Н.А. Историко-типологическая характеристика структуры тюркских языков. – Москва: Наука, 1975. – В.99.; Майзель С.С. Изафет в турецком языке. – Москва-Ленинград: АН СССР, 1957. – 186 с.

⁴⁵ Кононов А.Н. Грамматика современного турецкого литературного языка. – Москва-Ленинград: АН СССР, 1956. – В.379.

Ikki soʻzning oʻzaro leksik-grammatik yoki formal-grammatik vositalarsiz birikishi bitishuv usuliga ishora qiladi. Bunda ikki soʻz hech qanday shakliy koʻrsatkichlarsiz bogʻlanadi, tobe soʻzning hokim soʻzga munosabati tartib va ohangdan bilinadi⁴⁶. Bitishuv maxsus shakllantiruvchilarga ega emas, soʻz birikmasi aʼzolari orasidagi munosabat ularning tartibi bilan ifodalanadi⁴⁷. Bu usulning asosiy vositasi soʻz tartibi boʻlsa-da, birikma aʼzolarining maʼno talabiga koʻra muvofiq kelishi, umumiy kategorial xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Soʻzning “oʻz shakli” aloqani belgilashda ahamiyatsiz emas. Zero, birikmada soʻzlarning joylashishi shakliy xususiyatlar asosida belgilanadi. Muvofiq shaklga kirgan soʻzlarga tartib orqali birikadi. Bunda tobe soʻz hokim soʻzga nisbatan morfologik oʻzgarmasligi inobatga olinishi lozim. Chunki maʼnoviy va sintaktik munosabat lugʻaviy vosita orqali ifodalanadi⁴⁸. Lugʻaviy vosita soʻz shakllaridan tashqarida emas, demak, shakliy vositalar ham mavjud. Ular birikmada tobe soʻz hokimdan oldin, hokim soʻz tobedan keyin joylashuvini taʼminlaydi. Bitishuvli birikmalar I izofa nomi bilan yuritilgan⁴⁹. I izofada aloqaning asosiy vositasi soʻzlarning muqarrar qoʻshnichiligidir⁵⁰. Hozirgi kunda turkiy tillardagi agglyutinatsiya izofaga xos amorf bogʻlanishni birmuncha cheklab qoʻydi. Izofa turkiy tillarda turli koʻrinishdagi soʻz birikmalarini qamrab ololmaydi.

Ayon boʻladiki, tobe aloqa usullari qardosh va noqardosh tillar grammatikasiga tatbiq etilgan, umumiy oʻxshash qirralar topilgan. Shunga qaramay, soʻz birikmasining qurilishi, shakllanishi, birikish qonunlari hatto qardosh tillarda ham turlicha boʻlishi hisobga olinmadi. Oʻzbek tilida soʻzlarning bogʻlanish usullari rus va qardosh tillardagi kabi, tashqi tomondan, tobelanishning shakliy, zohiriy belgilari asosida belgilangan. Biroq usullarning mohiyati soʻz birikmasi qismlarining ichki va tashqi munosabati zaminida aniqlanishi lozim. Soʻzlarning sintaktik munosabatini tashqi, shakliy belgilar asosida tavsiflash hodisani bilishning fahm bosqichida oʻrganish demakdir. Chunki bu bosqichda soʻz birikmasi, tarkibiy qismlari munosabati tobe soʻz hokimdan, hokim soʻz tobedan ajratilib tahlil qilindi. Oqibatda, hodisa mohiyatdan uzib qoʻyildi va bir yoqlama baholandi. Soʻz birikmasi soʻzga xos semantik, morfologik, sintaktik qobiliyatlarning rang-barang ifodachisi boʻlib, unda soʻzlarning bogʻlanish imkoniyatlari yuzaga chiqadi. Nutqiy hosila lugʻaviy birliklarning ichki imkoniyati belgilovchi maʼnolarning boshqa maʼnolarga intilishi va bu ikki tomonning ehtiyoji-yu talabiga koʻra amalga oshishini qonuniy tarzda natijalaydi. Soʻz birikmasi soʻz maʼnolarining oʻxshashlik qatoridan birini muayyan shakliy vosita, belgilar asosida saylab yuzaga chiqarar ekan, bu jarayon lisoniy ishoralarning nutqiy ketma-ketligidagi kichik (soʻz birikmasi) doirasida mavjud aloqadorlik tufayli harakatda boʻladi⁵¹.

⁴⁶ Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис.—Тошкент: Фан, 1976. — В.16.

⁴⁷ Убрютова Е.И. Исследование по синтаксису якутского языка.— Москва-Ленинград: АН СССР, 1950. —В.31-32.

⁴⁸ Скобликова Е.С. Согласование и управление в русском языке. — Москва: Просвещение, 1971. —В.37.

⁴⁹ Кононов А.Н. Грамматика современного турецкого литературного языка. — Москва-Ленинград: АН СССР, 1956. —569 с.; Майзель С.С. Изяфет в турецком языке. — Москва-Ленинград: АН СССР, 1957. —186 с.; Бердиалиев А., Носиров Х. Ўзбек тили изофали конструкцияларининг баъзи масалалари//Ўзбек тили ва адабиёти. —Тошкент, 1978. —№3. —Б.17-19.

⁵⁰ Закиев М.З. Синтаксический строй татарского языка. —Казань: КГУ, 1963. —В.170-180.

⁵¹ Бошмонов М. Гап бўлаклари маъноси систем курилма сифатида//Ўзбек тили ва адабиёти. —Тошкент, 1990. —№4.—Б.43-48.; Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. — Москва: Наука, 1971. —292 с.

Bog‘lanish tabiatini so‘zlarning nutqdagi o‘zgaruvchan xususiyatlari asosida ta’riflash til “birligi” sifatida so‘z tarkibida “yashovchi”, nutqqacha mavjud imkoniyat (valentlik)ni⁵² voqelantiruvchi kuch sifatida idrok etolmaslik oqibatidir. So‘z birikmasida ichki (lisoniy) va tashqi (nutqiy) tomonlar muvozanati tobelanish usullarini shakl nuqtayi nazaridan tavsiflash tufayli buzildi. Bu esa, tahlilda lisoniy tomon – ichki, botiniy xususiyatlarni bosh mezonga aylantiradi. Shu bois so‘z birikmasini lison-nutq farqlanishida, substansial lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish o‘zbek tili sintaksisi nazariy masalalaridan biri sanaladi. Zotan, fan bilishning rivojlanish bosqichlarida tadqiq obyektiga narsa/hodisaning serqirraligi tamoyili va dialektik mantiq asosida yondashuvni taqozo etadi. Zero, ilmiy bilish chegaralarini kengaytirish, eng umumiy aloqadorlik qonuniyatlarining yashirin qirralarini kashf etish fanning rivojlanish tamalidir.

So‘z birikmasining lisoniy qurilishi masalasi formal grammatika e’tiboridan chetda qoldi. Formal grammatika so‘z birikmasining faqat kuzatishda berilgan xususiyatlarini o‘rganish bilan cheklandi. Shu sabab, so‘z birikmasining nutqiy o‘zgaruvchan, xususiy, tasodifiy belgilari lisoniy umumiy, o‘zgarmas, zaruriy belgilaridan ajratilgan holda tavsiflandi. Shu yo‘sindagi formal logik tasnifida uning 1) hokim a’zoning ma’lum so‘z turkumi bilan ifodalanishi, 2) tobe a’zoning sintaktik vazifasi, 3) tuzilishi, 4) tobelanish usullariga ko‘ra turlari ajratilgan⁵³.

Mazkur til birligining nutq bosqichidagi tahlili, formal sintaktik ta’limotda bir-biriga mos kelmaydigan qarashlar, formal mantiqiy mezonlar yuzaga keltirgan bir yoqlamalik, chigalliklar, uning lison bosqichidagi tadqiqini ilmiy tahlilning zaruriy bosqichi sifatida belgilaydi. Bu bosqichda so‘z birikmasi muammolarini yechish uchun substansial sintaksis nazariyasi asos bo‘ladi.

Dissertatsiyaning **“So‘z birikmalarining substansial tadqiqi va lisoniy sintaktik qurilishi”** deb nomlangan ikkinchi bobi uch bo‘limni o‘z ichiga oladi. Bobning *“So‘z birikmasida tobe va hokim a’zolarining bog‘lanishi”* nomli birinchi bo‘limida so‘z birikmasi qurilmasidagi ikki a’zoliklik, tobe va hokim a’zolarining ikki yoqlama bog‘lanishi, ma’noviy, shakliy, joylashuvga xos birikuvchanlik qobiliyatlari ikki tomonlama tanlanishi yoritildi.

So‘zlarning birikishi, ular orasidagi mantiqiy aloqa, dastavval, til birliklarining ma’no imkoniyati – substansial xususiyatiga ko‘ra amalga oshadi⁵⁴. Substansiallik tilning nafaqat ma’noviy, balki morfologik, sintaktik imkoniyatlarini ham qamrab olishi, birikish substansial xususiyatga egaligini e’tirof etmoq lozim, zero, bu xususiyat birikish tabiati va natijasida namoyon bo‘ladi. Til birliklarining birikishi, tobe va hokim a’zolar munosabatini substansial jihatdan tahlil qilish tadqiq obyektining ilmiy idrokini yangilaydi, asosiysi, so‘z birikmasi lisoniy qurilishini o‘rganishda boshlang‘ich bo‘g‘in hisoblanadi.

So‘zlarning erkin birikishini ta’minlovchi doimiy o‘zgarmas, qat’iy qolip bor, bu rang-barang birikmalarni istalgan miqdorda hosil qiluvchi [T ~ H]=SB umumiy qolipidir. Erkin birikma hosil bo‘lishiga cheksiz imkon beruvchi bu qolip har bir milliy tilning tabiiy mahsuli sifatida o‘ziga xos. So‘z birikmasi negizidagi uzv

⁵² Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Тошкент: Фан, 1989. – В.13.

⁵³ Шарипов М. Ҳозирги ўзбек тилида сўз бирикмалари синтаксиси масаласи. – Тошкент: Фан, 1978. – В.61.; Абдурахмонов Ғ., Сулаймонов А., Холиёров Х., Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – В.15.; Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – В.27.

⁵⁴ Расулов Р., Нарзиева М. Лексикологияни ўрганиш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – В.18.

(qolip) va tuzilishini tekshirish birikishni harakatlantiruvchi “jon tomiri”ni topish kabi qimmatlidir. Buning uchun sodda va murakkab tuzilishdagi birikmani qiyoslash kifoya: *duxoba do ‘ppi* va *qora duxoba do ‘ppi*. 1) $[T \rightarrow H] \text{ duxoba } [T] \rightarrow \text{do ‘ppi } [H]$; 2) $[T \rightarrow H] \text{ qora duxoba } [T] \rightarrow \text{do ‘ppi } [H]$.

1-ko‘rinish ($[T \rightarrow H]$)da tobe va hokim a‘zolar bir birlikdan, 2-ko‘rinishda esa, tobe a‘zo ikki birlikdan tashkil topgan bo‘lsa ham, birliklar miqdori a‘zolar soni va munosabatini o‘zgartirmagan. Chunki a‘zolar birikuvchilar miqdorini emas, tobe-hokimligini bildiradi. Nutqda tobe va hokim bir necha til birligidan iborat bo‘lishi tabiiy, ammo yaxlit ma‘noni ifodalovchi atov birligi huquqida qolip a‘zosi sanaladi. Birikma tuzilishi qolip “faoliyati”, ikki a‘zolilik tabiatini o‘zgartira olmaydi, balki tobe va hokim a‘zo orasidagi munosabatning cheksiz nutqiy ko‘rinishlarini tasdiqlaydi. So‘z birikmasi nutqda istalgancha kengaya oladi, ikki a‘zoliligi $[T \sim H] = \text{SB}$ qolipi tufayli saqlanadi.

Formal sintaksisga ko‘ra, tobe so‘z shakli va o‘rni so‘zlarni bog‘lovchi asosiy vosita, bosh omil sanaladi. Tobe aloqa usullari tobe so‘zga, uning tashqi belgilariga asoslanib aniqlangan. Hokim so‘zning tobe so‘zga qarab o‘zgarishi, so‘zlarning maxsus ko‘rsatkichlarsiz birikuvi sintaktik usullarni belgilovchi shartlardir. So‘z birikmasi qismlarining munosabati shakl – morfologik vosita asosida belgilangani bois moslashuv shakliy ikki yoqlama bog‘lanishga, boshqaruv bir yoqlama bog‘lanishga kiritildi, maxsus ko‘rsatkichsiz bog‘lanish bu sirada o‘rin topmadi. Holbuki, a‘zolar munosabati yaqqol ko‘rinishi yoki sezilmasligi mumkin.

So‘zning sintaktik qobiliyatini o‘rganish, ma‘noviy va sintaktik birikishlarini (valentliklarini) farqlash, so‘zga nutqda ro‘yobga chiqadigan barcha xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi yaxlitlik (substansiya) sifatida qarash so‘z birikmasida tobe va hokim so‘zlar munosabatiga substansial yondashuv imkonini beradi⁵⁵. Valentlik nazariyasi tobe so‘z birikish, hokim so‘z biriktirish qobiliyatiga ega bo‘lgandagina so‘z birikmasi yuzaga kelishini asoslaydi. Sintaktik aloqalarda ro‘yobga chiquvchi valentliklar tobelanish munosabatining muhim xususiyati – ikki yoqlamalilikni aniqlashga imkon beradi. So‘z birikmasi tobe va hokim qismlarning ikki yoqlama bog‘lanishidan hosil bo‘lishini uqtiradi. Ikki yoqlama bog‘lanish faqat shakliy emas, turli xususiyatlardan kelib chiqadi. Bog‘lanish har ikki a‘zoning ma‘noviy, shakliy, joylashuv xususiyatlari muvofiqlashganda, ularning ikki yoqlama “bitimi” tufayli ro‘yobga chiqadi. Masalan, sifat va ot birikuvida sifat predmetning belgisini aniqlash uchun tobe vaziyatni egallaydi, belgisi aniqlanayotgan predmet nomi hokim vaziyatda bo‘ladi. Bu xil birikmalarda tobe a‘zo o‘rni o‘zgartirilsa, sintaktik munosabat ham o‘zgaradi: *dono qiz* (so‘z birikmasi); *Qiz dono* (gap). Tobe so‘z hokimga belgini ifodalash ma‘nosi, undan oldin kelishi, ma‘lum turkumga tegishliligiga ko‘ra biriksa, hokim so‘z tobe so‘zni predmetlik ma‘nosi, umumiy grammatik shakli, undan keyin joylashuvi asosida biriktiradi. Birikma a‘zolari bu holatda ham ikki yoqlama bog‘lanadi.

Tobe so‘zning birikish imkoniyati va hokim so‘zning biriktirish ehtiyoji tufayli so‘z birikmasi vujudga keladi. Ikki yoqlama bog‘lanish tobe va hokim so‘zlar valentliklari zaminida talab va imkoniyatning muayyan tarzda qondirilishi sifatida qonuniy amal qiladi. Asosiysi, til birliklariga xos ma‘noviy, shakliy,

⁵⁵ Иванов С.Н. Родословное древо тюркок Абул-Газахана.—Ташкент: Фан, 1969.—203 с.; Неъматов Ҳ. Тажалли тасаввуф билиш назарияси ва тилшуносликда синтаксисни ўрганиш масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. — Тошкент, 1993.—№2.—Б.27-30.; Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари.—Тошкент: Фан, 1989.—142 б.; Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари: Филол.фанлари номз. ... диссер.автореф. —Тошкент., 1996. —19 б.

joylashuv qobiliyatlarining ikki a'zo tomonidan muayyan vaziyatda tanlanishi, saylab olinishi natijasida yuzaga chiqadi. Bu uch qobiliyatdan biri boshqasidan ajralmaydi, birgalikda so'zni sintaktik aloqaga kirituvchi uch asos – tayanch “ildizi” vazifasini bajaradi.

Mazkur bobning *“So‘zlarning birikish omillari va usullari”* nomli ikkinchi bo‘limida erkin birikishning lisoniy asosi, birikish omillari, ularning aloqadorligi, bog‘lanish usullari xususida fikr yuritildi.

So‘zda yaxlitlashgan ma’noviy, shakliy, joylashish imkoniyatlari sintaktik aloqaning ikki yoqlamaligi negizida birikishni ta’minlovchi omillar mavjudligini ko‘rsatadi. So‘zga xos ma’noviy, shakliy, joylashuv qobiliyatlarda mujassam lisoniy omillar nutqda so‘zlarning turli bog‘lanishlar, shaklan va mazmunan farqli birikmalarni hosil qilishiga asos bo‘ladi. Bu lisoniy asosni birikishning uch omili tashkil etadi. Bular –1) ma’noviy, 2) shakliy, 3) joylashuv omillari bo‘lib, so‘zning ichki strukturasida bir butundir. Ma’noviy ([M]) omil – so‘zlarning bog‘lanishi uchun muhim lisoniy omillardan biri. O‘zbek tili qurilishi uchun ahamiyatli [M] omil sifatida so‘zlarning 1) lug‘aviy ma’nosi, 2) kategorial, ya’ni turkumiga xos ma’nosi ajratiladi. Kategorial ma’no mustaqil so‘z turkumlari doirasida predmetlik, belgi, miqdor, harakat, holat, tasviriylik, ishoraviylik kabi ma’nolarni o‘z ichiga oladi. So‘zlarning kategorial ma’nosi ot, sifat, son, fe‘l, ravish, olmosh turkumlari va ichki guruhlari asosida 28 xil mazmuniy-sintaktik guruhni birlashtiradi (2.4-chizma):

Ot	Sifat	Son	Fe'l	Olmosh	Ravish
• Modda-ashyo nomlari. • Shaxs nomlari. • Atoqli otlar. • Mavhum otlar. • Muayyan otlar.	• Xususiyat. • Holat. • Shakl-ko‘rinish. • Rang-tus. • Hajm-o‘lchov. • Maza-ta‘m. • Hid bildiruvchi. • O‘rin-paytga munosabat bildiruvchi.	• Tartib son. • Dona son. • Chama son. • Taqsim son. • Sanoq son.	• O‘timli fe‘llar. • O‘timsiz fe‘llar.	• Ot o‘rnida qo‘llanuvchi. • Sifat, son (qisman ravish) o‘rnida qo‘llanuvchi.	• Payt ravishi. • Maqsad ravishi. • Sabab ravishi. • O‘rin ravishi. • Tarz ravishi. • Miqdor-daraja ravishi.

“2.4-chizma”. Ma’noviy omil tarkibidagi 28 xil mazmuniy-sintaktik guruh

So‘zlarni bog‘lashga xizmat qiluvchi shakliy ([Sh]) omil deganda, kelishik, egalik, nisbat, ravishdosh, sifatdosh shakllari anglanadi. Yordamchi so‘zlardan ko‘makchilargina tobe-hokimlikni hosil qiluvchi shakliy vositalarga kiradi. So‘zning turkumiy ma’nosini ifodalovchi shakl morfologik omil sifatida ajratiladi. [Sh] omil so‘zlarning birikuvini 1) sintaktik aloqa hosil qiluvchi qo‘shimchalar, 2) yordamchi so‘zlar, 3) so‘zning muayyan turkumga mansubligi asosida ta’minlaydi. So‘zlar orasidagi aloqalarning eng kuchli yo‘li – ularni yonma-yon joylashtirish (E.Sepir). Turkiy tillarda so‘zlarning qo‘shnichilik tartibi qat’iy: tobe oldinda, hokim keyinda turadi. Bunda ikki holat – erkin joylashuv va jipslashuv farqlanadi. Erkin joylashuv a’zolar kengaysa ham, aloqa turiga ta’sir qilmaydi. Jipslashuvda tobe va hokimni bir-biridan “uzib” bo‘lmaydi (*tosh ko‘prik – toshdan yasalgan ko‘prik*). Erkin yoki jips bog‘lanish birikishning joylashuv ([J]) omilidir.

Soʻz birikmasi [M], [Sh], [J] omillarining oʻzaro muvofiqlashuvi natijasida vujudga keladi. Uch omil birikishni taʼminlash barobarida sintaktik aloqa usulini belgilaydi. Muayyan omilning yetakchiligi nisbiy boʻlib, istalgan vaziyatda boshqa birining kuchayishi bilan susayadi. Shunga koʻra, soʻz birikmasi aʼzolari quyidagi 6 usul asosida birikadi: 1) ShMJ; 2) ShJM; 3) MShJ; 4) MJSh; 5) JMSH; 6) JShM. Bu olti usul soʻz birikmasi qismlarini bogʻlashga xizmat qiladigan uch omilning mantiqiy-riyoziy koʻrinishlaridir. Tobe soʻz ham, hokim soʻz ham [M], [Sh], [J] omillari (birining yetakchiligi) va olti usul asosida sintaktik aloqaga kirishadi.

Bobning “Soʻz birikmasining mantiqiy-riyoziy turlari va lisoniy qurilishi” nomli uchinchi boʻlimida mantiqiy-riyoziy tur(MRT)lar til sathida soʻz birikmasi hosil qilishning lisoniy imkoniyatlari umumiyliigi sifatida mavjudligi va soʻz birikmasi qurilish qoliplarini belgilashi asoslab berildi.

Soʻz birikmasida tobe va hokim qismlarning bogʻlanishi ikki tomonlamaligi bois har ikkisi ham 6 usul – [ShMJ], [ShJM], [MShJ], [MJSh], [JMSH], [JShM] asosida birika oladi. Birikish usullari riyoziy “6x6” qiymatida integrallashadi. Chunki har bir tobe mantiqan olti xil hokimga birikadi va har bir hokim olti xil tobeni biriktiradi. Mohiyatan tobe-hokimlikning 36 imkoniyati mavjud, tobelanish, aslida, bu imkoniyatlardan birini tanlashdir. Shunday ekan, tobelanish “6 tobe x 6 hokim” shakllantirgan koʻrinishlar tizimiga ega. Unda soʻz birikmasi qismlarining birikish usullariga koʻra farqlanuvchi 36 turi oʻz ifodasini topadi. Mazkur tizim tilimizda soʻz birikmasini shakllantiruvchi tobe-hokimlikning 36 imkoniyatini aniq va ramziy tasvirlash imkonini beradi (qarang: 2.1-jadval).

“2.1-jadval”. Soʻz birikmasini shakllantiruvchi lisoniy 36 imkoniyat

h t	ShMJ (a)	ShJM (b)	MShJ (v)	MJSh (g)	JMSH (d)	JShM (e)
ShMJ (A)	Aa	Ab	Av	Ag	Ad	Ae
ShJM (B)	Ba	Bb	Bv	Bg	Bd	Be
MShJ (V)	Va	Vb	Vv	Vg	Vd	Ve
MJSh (G)	Ga	Gb	Gv	Gg	Gd	Ge
JMSH (D)	Da	Db	Dv	Dg	Dd	De
JShM (E)	Ea	Eb	Ev	Eg	Ed	Ee

Birikish usullari keltirib chiqargan 36 MRT til sathida erkin birikmalar hosil qilishni umumlashtiradi. Bu MRTlar barcha tillarda mavjud, ammo har bir tilda ularning voqelanishi turlicha. Oʻzbek tili MRTlardan qay birini voqelantirishi 36 “§”ga ajratilgan har bir MRT mohiyatini ochish, tilimizda soʻz birikmasi hosil qilishi va qila olmasligi asosida oʻrganildi. 36 MRT jamlangan 2.1-jadvaldagi “nomaʼlum” xonalar qanday aʼzoldan iboratligi tekshirilib, har bir MRTga oid lisoniy qoliplar aniqlandi. Oʻzbek tilida anʼana boʻyicha bir hokimga bir tobe va bir tobega bir hokim emas, balki bir turdagi tobega 6 xil hokim (Aa, Ab, Av, Ag, Ad, Ae) va bir turdagi hokimga 6 xil tobe (Aa, Ba, Va, Ga, Da, Ea) mos keladi. Muhimi, oʻzbek tilida atigi olti MRT soʻz birikmasi hosil qilishga imkon bera

oladi. Soʻz birikmasi MRTlarida tilning bir butun tizimga xos ustuvor qolip va uning koʻrinishlari aloqadorligi gavdalanadi. Jadvalning aʼzoli xonalaridan soʻz birikmasi lisoniy qoliplari oʻrin oladi. Lisoniy qolip va MRTlar oʻzaro umumiylik–xususiylik munosabati asosida uzviy bogʻlangan. Istalgan MRT oʻz lisoniy qolip va koʻrinishlari uchun umumlisoniy imkoniyat, yaʼni lisoniy ramz hisoblanadi. Oʻzbek tilida erkin birikishning 16 ta lisoniy sintaktik qolip(LSQ)i mavjud va soʻz birikmasi qurilish qoliplari majmuyida (37-§da) oʻz oʻrniga ega. MRTlar har bir til egasi tomonidan idrok qilinib, tafakkurda soʻz birikmasi hosil qiluvchi imkoniy, zaruriy, umumiy usullar sifatida tayyor holda, til sathida muayyan tizimni tashkil etuvchi birliklar tarzida saqlanadi. Juzʼiyliklardan xoli boʻlganligi, ongimizda lisoniy ramz sifatida mavjudligi uchun umumiyliklarda mujassamlangan xususiyatlarni alohida-alohida aks ettiruvchi cheksiz miqdordagi xususiyliklarni oʻz mohiyatida birlashtiradi⁵⁶. MRT ongimizda umumlisoniy birlik maqomida turadi, LSQlarni birlashtiradi, ular orqali moddiylashadi, LSQlarning har bir voqelanishida takrorlanadi. Bu esa, MRTlar idrok bosqichida oʻrganilishi, til sathida yuqori pogʻonada turishini bildiradi. Demak, istalgan MRT umumlisoniy birlik, ramz, tarh, yaʼni tafakkuriy imkoniyatdir.

Tadqiqotning **“Soʻz birikmasi qurilishida paradigmatic munosabat”** deb nomlangan uchinchi bobi ikki boʻlimdan tashkil topgan.Uning *“Paradigmatic munosabat lisoniy munosabatlarning bir turi sifatida”* nomli birinchi boʻlimida paradigmatic munosabat, paradigma, tarkibi, aʼzolarining xususiyatlari yoritildi.

Lisoniy munosabatlar tizim butunligiga xos boʻlaklar, yaʼni lisoniy sathlar va birliklar orasida yuzaga chiqadi. Bir sathga va turli sathga mansub birliklar munosabati yoki sathlararo munosabat⁵⁷ga ajratiladi. Til tizimida bir birlikning mohiyati tizim birliklari orasidagi munosabatlar orqali aniqlanadi. Til birliklari orasida, asosan, uch turdagi: 1) paradigmatic (oʻxshashlik/uyadoshlik), 2) iyerarxik (pogʻonali); 3) sintagmatic (qoʻshnichilik/ketma-ketlik) munosabatlar⁵⁸ farqlanadi. Til birliklari paradigmatic, nutq birliklari esa sintagmatic munosabatda yashaydi⁵⁹. Til va nutq dixotomiyasi ham lisoniy munosabatlarsiz anglashilmaydi.

F. de Sosyur til birliklarining xotirada mavjudlik holati va ularning psixik tomonini hisobga olib, uni “assotsiativ munosabat” deb atagan boʻlsa, keyinchalik til birliklarining bu munosabati “paradigmatic munosabat” yoki “paradigmatika” atamasi bilan nomlanadi⁶⁰. Sossyur talqinicha, nutqdan xoli boʻlgan til birliklari kishi xotirasida turli-tuman sistem munosabatlarda yashaydi va bu sistem munosabatlarni tashkil etuvchilar orasidagi bogʻlanish paradigmatic bogʻlanish deyiladi. Koʻp sonli til birliklari til xotirasida ulardan nutq jarayonida tez va adashmasdan foydalanish uchun diskret va sistem holatda ushlab turiladi. Til birliklarining kishi xotirasida diskret holda saqlanishi, odatda, ularning oʻzaro oppozitiv munosabatda boʻlishiga asoslanadi. Til birliklari umumiy, oʻxshash va farqli belgi-xususiyatga ega. Umumiy, oʻxshash belgi ularni bir qator/sinfga birlashtirsa, farqli tomonlar bir-biriga qarama-qarshi qoʻyadi. Unli fonemalar

⁵⁶ Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик ва хусусийлик диалектикаси талқинида (I жуз). – Андижон, 1994. – В. 9.

⁵⁷ Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Тошкент: Шарк, 2001. – В.9.

⁵⁸ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – В.14-15.

⁵⁹ Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – В.21.

⁶⁰ Неъматов Х., Бозоров О. Коʻrsatilgan manba. – В.21.; Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Фан ва технология, 2010. – В.238-240.

umumiy “sof ovozga egalik” belgisi asosida birlashuvi va differensial fonologik belgisiga ko‘ra qarama-qarshi turishi yetarli dalil. Umumiy “kenglik” belgisi *a* va *o* unlilarini birlashtiradi, lekin “lablanmaganlik” va “lablanganlik” belgisi ularni farqlaydi. Umumiy belgisi asosida birlashgan, bir-birini taqozo etadigan, ammo har biri o‘ziga xos belgisi bilan boshqasiga qarama-qarshi turuvchi lisoniy birliklar tizimi paradigma⁶¹dir. O‘xshashlik qatorlariga o‘zaro o‘xshashlikka va ayrim farqlarga ega bo‘lgan til birliklari birlashadi⁶².

O‘zbek tilida “narsa/buyumning muayyan shaxsga qarashlilik”ni ifodalash oltita morfemani bir paradigmaga birlashtiradi. Muhim jihati, [-*m*] morfemasi yolg‘iz o‘zi paradigmani hosil qilolmaydi. Zero, tilimizda ayni grammatik ma‘no [-*m*]dan tashqari besh xil morfemada mujassam. Ular “narsa/buyumning shaxsga qarashlilik” grammatik ma‘nosini ifodalashga xizmat qiluvchi egalik shakllari paradigmasini tashkil etadi. Mazkur paradigma bir-biriga zidlashuvchi olti a‘zodan iborat. Bu sistemaviy lingvistika asoslagan, nazariy tamali shu yo‘sinda yaratilgan adabiyotlardan ma‘lum xulosani tasdiqlaydi: “paradigma kamida ikki a‘zoli bo‘lib, ular, asosan, bir sathga mansub bo‘ladi”⁶³. Til birliklari munosabatlari, qat‘iy joylashuvi va ichki tartibini boshqaruvchi tizim qonuniyati birliklar orasidagi ziddiyatli munosabatlarni ta‘minlaydi. Birliklarning muayyan farqlar asosida bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilishi va ziddiyat hosil qilishi qonuniy bo‘lib, paradigmatic munosabatni belgilashda muhim lisoniy asosdir. Bu munosabatlar til ziddiyatlarida voqelashadi, “ko‘rinadi”⁶⁴. Paradigmatic munosabatda til yaxlit tizim sifatida gavdalanadi. Lisoniy sath birliklararo bog‘lanishni paradigma ko‘rinishida ifodalash imkoni tufayli fonologik, leksik, morfologik paradigmalar ajratiladi. Shunday ekan, bu sirada sintaktik sathga mansub birliklar paradigmalari, paradigma a‘zolari ham ajratilishi lozim.

Bobning “*So‘z birikmasi lisoniy sintaktik qoliplari va paradigmalari*” nomli ikkinchi bo‘limida so‘z birikmasi LSQlari, paradigmalari masalasi o‘rganildi, invariant LSQi, SBLSQlari paradigmalari, tarkibi, yetakchi a‘zosi aniqlandi.

Lisoniy sintaktik birlikning idroki bilishning ratsional bosqichida shakllanadi. XX asrning 90-yillarida o‘zbek tilshunosligida sintaktik hodisalarda zotiy va tajalliy jihatlarni farqlash, gap va so‘z birikmalarini lison-nutq nuqtayi nazaridan izchil tavsifini berish⁶⁵ natijasida sintaksisning struktural, substansial tadqiqida sintaktik qolip (model) ilmiy tushuncha, termin, lisoniy birlik sifatida o‘rin oldi. Sintaktik qoliplar so‘z birikmasining lisoniy sintaktik qurilishiga xos umumiy, o‘zgarmas, zaruriy, moddiy ifodalanishda takrorlanuvchi xususiyatlarni o‘zida aks ettiradi. O‘zbek struktural va substansial sintaksisi nazariyasida so‘z birikmasini hosil qiluvchi LSQlar til jamiyati a‘zolari ongida tayyor holda, lisoniy shakl va

⁶¹ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B.42.

⁶² Нейматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – B.15.

⁶³ Нейматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 32 б.; Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. – Москва: Наука, 1971. – 292 с.; Шахобиддинова Ш.Х. Грамматик маъно талкини хусусида: Филол. фанлари номзоди... дис. автореф. – Самарканд, 1993. – 24 б.; Нигматова Л.Х. Ўзбек тилида привативлик (нофонологик сатҳлар): Филол. фанлари номзоди... диссер. автореф. – Тошкент, 2004. – 18 б.; Менглиев Б.Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: Филол. фанлари доктори... диссер. автореф. – Тошкент, 2002. – 46 б.; Қодиров З. Ўзбек тили грамматик категорияларини систем тадқиқ этиш (келишик категорияси): Филол. фанлари номзоди... дис. автореф. – Самарканд, 1993. – 28 б.

⁶⁴ Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. – Тошкент: Фан, 1989. – B.16.

⁶⁵ Менглиев Б.Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: Филол. фанлари доктори... диссер. автореф. – Тошкент, 2002. – B.31.

mazmun aloqadorligining in'ikosi sifatida mavjud bo'lishi isbotlangan. Ularning "yuksak darajadagi umumiyliklar ekanligi, imkoniyat sifatida mavjudligi, kuzatishda berilmaganligi, nazariy bosqichda idrokiy usul bilan tasavvur etilishi, nutqda cheksiz voqelanishi"⁶⁶ aniqlangan. LSQlar "jamiyatning barcha a'zolari tomonidan uzoq vaqt davomida shakllantirilishi, ijtimoiy tabiatga egaligi, o'zbek tilida so'z birikmasining 18ta ustuvor qolipi aniqlanganligi, ular miqdoran cheklanganligi"⁶⁷ ham qayd etilgan. Demak, LSQ kuzatishda berilmagan, o'z mahsuli orqali moddiylashadigan, nutqda cheksiz takrorlanish imkoniyatiga ega bo'lgan, o'z hosilalari sintaktik qurilishining umumiy, o'zgarmas xususiyatlarini qamrab olgan lisoniy birlikdir. So'z birikmasi LSQlari ham uning bir turi sifatida lisoniy birlik sanaladi.

So'z birikmasining barcha turlari bitta LSQ asosida hosil bo'lmaydi. Zero, erkin birikmaning necha turi mavjud bo'lsa, birikma turlariga nutq qancha dalil bera olsa, til ularning voqelanishiga imkon beruvchi shuncha LSQga ega. Tobe-hokimlikning 36 imkoniyati va erkin birikma hosil qilishning 36 MRTi ham so'z birikmasining har bir turiga xos sintaktik qurilish xususiyatlarini aks ettiruvchi LSQ mavjudligini nazariy asoslaydi. So'nggi izlanishlar⁶⁸ so'z birikmasini hosil qiluvchi 16 xil LSQi borligini tasdiqlaydi. 16 xil LSQ 16 turdagi erkin birikmani sintaktik qurilish xususiyatlariga ko'ra farqlaydi va qurilishning 16 turdagi xususiy ko'rinishi hisoblanadi. Shunday ekan, 16 xil LSQi so'z birikmasiga xos lisoniy qurilish umumiylikni bir butun holda aks ettirmaydi. Til sathiga tegishli bo'lsa ham, bu LSQlar so'z birikmalaridagi umumiy lisoniy qurilishning xususiyliklari, lisoniy qurilish butunligiga tegishli bo'laklarni gavdalandiradi. Hech bir umumiylik xususiyliklarning oddiy yig'indisi emas, butunlik/sistema/qolip ham tarkibiy qism/element/a'zolarining yig'indisidan kattaroq mohiyatga ega. Demak, 16 ta SBLSQi yig'indisidan umumiy LSQ kelib chiqmasligi muhaqqaqdir. Mazkur LSQlardan yuqori pog'onada turuvchi va til sathida so'z birikmalariga xos sintaktik qurilishni yuksak darajada umumlashtiradigan invariant qolip bor. U so'z birikmasi hosil qilishning 16 xil LSQi, erkin birikishning 16 xil usuli va mahsulini qamrab oladi. Shu sababdan bu qolip (butunlik/sistema) o'zi birlashtirgan muayyan qismlar (qolip/elementlar) miqdori va sifatidan yirikroq, umumiyroq mohiyatga ega. Ushbu mohiyatni tilda $[LB_1 \sim LB_2] = NB$ gavdalandiradi. Tobe vaziyatdagi lisoniy birlik $-[LB_1]$ ning hokim vaziyatdagi lisoniy birlik $-[LB_2]$ ga bog'lanishi va mazkur bog'lanish natijasi, ya'ni nutqiy birlik $- [NB]$ orasidagi munosabatlar majmuyi o'laroq $[LB_1 \sim LB_2] = NB$ LSQi o'zbek tili sintaktik sathida so'z birikmalarining lisoniy qurilishini yuksak darajada umumlashtiruvchi invariant sintaktik birlik maqomida turadi. Lisoniy sintaktik iyerarxiyada $[LB_1 \sim LB_2] = NB$ quyi pog'onadagi SBLSQlari mohiyatini umumlashtiradi. 16 xil SBLSQi bilan umumiylik-xususiylik aloqadorligida bog'lanadi, shu bois 16 xil SBLSQi xususiylik sifatida baholanadi. $[LB_1 \sim LB_2] = NB$ iyerarxiyaning yuqori pog'onasida umumlisoniy birlik maqomida turadi va invariant LSQi hisoblanadi.

SBLSQlari umumiy o'xshashlik asosida $[I \sim I] = SBLSQi$ va $[I \sim F] = SBLSQi$ belgilaydigan ikki sintaktik paradigmaga birlashadi. $[I \sim I] = SBLSQi$ yuqori darajada umumlashtirish xususiyatiga egaligi uchun quyidagi SBLSQlarini bir paradigmaga birlashtiradi: 1) $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SBLSQ$; 2) $[I^{ch.k.} \sim I^{cheg.}] = SBLSQ$; 3) $[I^{k.k.} \sim Sf] = SBLSQ$;

⁶⁶ Курбонова М.М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талкини: Филол. фанлари доктори... диссер.автореф. – Тошкент, 2001. – В.17.

⁶⁷ Менглиев Б. Ўзбек тилининг структур синтаксиси. – Қарши: Насаф, 2003. – В. 8-10.

⁶⁸ Назарова С. Сўз бирикмаси синтаксиси субстанциал талкинда. – Тошкент: Фан, 2015. – 112 б.

4) [S^{k.k.}~S]=SB; 5) [I^{k.k.}~O]=SBLSQ; 6) [I^{o'xsh.}~I]=SBLSQ; 7) [I~O]=SBLSQ. Bu 7 xil sintaktik birlik – [I~I]=SBLSQi yetakchi bo'lgan paradigmaning a'zolari. [I~I]=SBLSQi dominant sifatida paradigmaning har bir a'zosi bilan noto'liq ziddiyatda turadi. Yuqori darajada umumlashtirish [I~F]=SBLSQiga 1) [I^{ch/j.k.}~F^{m/o.n.}]=SBLSQi; 2) [I^{k.k.}~F]=SBLSQi; 3) [I^{o'xsh.}~F]=SB LSQi; 4) [F^{rd.}~F]=SB; 5) [I~F]=SBLSQini birlashtirishga imkon beradi. 5 xil sintaktik birlikdan iborat paradigma yetakchisi – [I~F]=SBLSQi va a'zolari privativlik asosida bog'lanadi. O'zbek tili sintaktik sathida so'z birikmasi lisoniy qurilishiga tegishli [I~I]=SBLSQi va [I~F]=SBLSQi belgilaydigan ikki yirik paradigma mavjud. So'z birikmasi lisoniy qurilish tizimi ikki paradigma va har biriga oid tashqi hamda ichki paradigmalardan tashkil topgan. Umuman, so'z birikmasi lisoniy qurilishida paradigmatic, iyerarxik munosabatlar lisoniy tizim qonuniyatiga muvofiq aks etadi. Bu esa, sintaktik sathda so'z birikmasi qurilishi ikki yirik paradigmani birlashtiruvchi invariant va variant birliklar tizimidan iboratligini isbotlaydi.

“So'z birikmalarining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar” deb nomlanuvchi to'rtinchi bob ikki bo'limni o'z ichiga oladi. Bobning birinchi – *“So'z birikmasining uslubiy xoslanishi”* bo'limida so'z birikmalarining uslubiy xoslanishi badiiy nutqda voqelanish imkoniyatlari asosida tahlil qilindi.

So'z birikmasi nutq sharoiti, vaziyati va tilning turli uslublariga muvofiq qo'llaniladi. Nutqiy imkoniyatlari, uslubiy xoslanishi uning bir turi – ismli birikmaning badiiy uslubda, nasriy va nazmiy nutqda qo'llanilishi orqali aniqlandi. 1. Lekin otamni mahalla ahli hurmat qilar, u kishi bilan “Polvon bobo” deb so'rashishar, bir qariyaning: “Bechora ko'p sodda, *mard odam*. O'zbekning soddasi shuyov” deganini ham eshitganmiz⁶⁹. 2. *Cho'loq turna* otasi sharpasidan ham o'ziga yaqinlik, boshpana hissini tuygan, aka va opalari ovozidan ham asti hayiqmagan edi⁷⁰. Sh.Xolmirzayev hikoyalari matnida qo'llangan *mard odam* birikmasi shaxsning xususiyatini, *cho'loq turna* ornitonim va uning holat belgisini ifodalaydi. Birikmalarning sintaktik qurilishini nutq bosqichida [Sf~O]=SB, lison bosqichida [I~O]=SBLSQi umumlashtiradi. 3. *Muloyim qo'llarda* ivib, suvga aylangandan keyin *go'zal ko'zlarning* supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko'rar ekan *bu ko'kat!*⁷¹ *Muloyim qo'llar, go'zal ko'zlar, bu ko'kat* birikmalari “Kecha va kunduz” romanida bahor faslining badiiy tasvirini shakllantiradi. Bahorning badiiy tasvirini yaratish ehtiyoji bu so'z birikmalarini obrazli ifoda vositasiga aylantirgan. Nutq egasi *qo'l, ko'z, ko'kat* kabi predmetlarning belgisini tilning ikki asosiy leksik-semantik imkoniyatini voqelantirgan holda ifodalaydi. Tasvirni jonlantiruvchi birikmalar etnomadaniy xususiyatga, o'zbek ayollarining pardozi vositasi – *o'smaga* ishora qiladi. Sifat, olmosh va otning birikuvi [belgi-predmet] ma'noli nutqiy variantlar hosil qilgan.

Tilning leksik-semantik vositalari so'z birikmasi shaklida ifodalanar ekan, lison sathidagi sintaktik ifoda usullaridan biri atash vazifasini reallashtiradi. Nutqiy omillar [belgi-predmet] ma'noli birikmalarni hosil qilish uchun [I~O]=SBLSQini harakatga keltiradi. Badiiy nutqda sifat, olmosh, son, taqlid leksemalari shu LSQ asosida xilma-xil so'z birikmalarini hosil qiladi: *Anavi daraxtga* suyanib turgan bola *katta o'g'rilarga* qo'shilgan⁷². Olmosh *anavi daraxt* hosilasida predmetga xos

⁶⁹ Холмирзаев III. Бодом қишда гуллади. – Тошкент: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – B.81.

⁷⁰ Холмирзаев III. Ко'rsatilgan manba. – B.86.

⁷¹ Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Sharq, 2016. – B.22.

⁷² Malik, Tohir. Alvado... bolalik. Qissa. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2019. – B.4.

ishoraviy belgini aniqlashtiradi. Sifat *katta o'g'ri(lar)* birikmasida hajmni emas, yosh xususiyati, mavqeda balandlikni metonimik usulda ifodalaydi. Natijada *yoshi katta o'g'ri* yoki *tajribasi katta o'g'ri* kabi birikmalar mazmuniga teng, ammo metonimiya asosida ixcham va nutq tejalgan birikma shakllangan.

So'z birikmasi badiiy tasvirning o'ziga xos vositasi, asosiysi, obraz va obrazli ifoda yaratish usulidir. Abdurauf Fitrat, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon, Eshqobil Shukur she'rlarida voqelashgan ismli birikmalar tahlilida bu o'z tasdiqini topadi. Badiiy tasvirda qo'llangan ismli birikmalar poetik nutqda ijodkor individualligini ko'rsatadi. Fitrat poetik nutqiga xos: *ulug' Turon, erka malak, og'ir yigit; turk tengizi, arslonlar o'lkasi, arslonlar arsloni, ko'nglimning buti, haqsizlik shahri*⁷³; E.Vohidov poetik nutqiga xos: *novvot qoyalar, totli azob, shirin qayg'u, oyruxsor sarv, dildor sarv, dil savoli, ayriliq shomi, visol bog'lari*⁷⁴; A.Oripov poetik nutqiga xos: *qonli sahna, shirin tush, kichkina hasrat, suluv til, musaffo chiroy, kumush shabnam, ilhom guli, kunduz mash'alasi*⁷⁵; Sh.Rahmon poetik nutqiga xos: *zumrad g'o'ralar, jodugar navo, bolakay shamol, yorug' anduh, yetim yalpizlar, homilador bog', tong ko'ylagi, yerning yuragi*⁷⁶ va E.Shukur poetik nutqiga xos: *shoyi shafaqlar, po'lat til, havo so'z, muzlagan ovoz, yam-yashil so'zlar, yashil raqs, muzliklar kulgusi, tabassum tovushi*⁷⁷ ko'rinishlari so'z birikmasi rang-barang obrazlar yaratish imkoniyatini, shoir poetik sintaksisida ko'chimplarni shakllantirishini dalillaydi. Shunga ko'ra, [I^{k.k.}~I^{e.k.}]=SBLSQi va [I~O]=SBLSQini poetik sintaksisda badiiy tasvir vositalarini shakllantiruvchi lisoniy sintaktik omillar deb baholash mumkin. Bu LSQlar mahsuli poetik nutqda obraz yaratish, metafora, sintaktik parallelizmni shakllantirish, shaxs, narsa, hodisa, ruhiy holatni obrazli ifodalashga xizmat qiladi.

Ismli birikmalarning nasriy nutqda voqelanishi, uslubiy xususiyatlari Sh.Xolmirzayev hikoyalarida kuzatilgan 70 xil birikma tahlili orqali aniqlandi. Aytish joizki, [I^{k.k.}~I^{e.k.}]=SBLSQining nasriy nutqda voqelanish imkoniyatini 70 xil hosila cheklamaydi. Ismli birikmaning [tur-jins] ma'noli turiga oid 70 xil hosila xoslik va atalganlik ma'nolari asosida voqelikni jonli, real tasvirlaydi, uslubga muvofiq emotsional-ekspressivlik, individuallik, jozibadorlik kasb etadi. Bu esa, so'z birikmasiga xos uslubiy, poetik sintaktik imkoniyatlar kengligini tasdiqlaydi.

Bobning "*So'z birikmasi muloqot birligi sifatida*" nomli ikkinchi bo'limida so'z birikmasining pragmatik xoslanishi, nutqiy qo'llanilishiga pragmatik omillar ta'siri va so'z birikmasiga xos pragmatik xususiyatlar o'rganildi.

So'z birikmalari nutqiy muloqotda lisoniy shaxsni xarakterlovchi xususiyatlar, nutq subyektlariga xos individuallik, til sohiblarining ijtimoiy vazifalarini nutqiy faoliyatida aniqlashtiradi: *Tergovchi yigit* esa "*anig'ini aytasiz, aldashingizga yo'l qo'ymayman*", deganday unga tikilib oldi⁷⁸. Pragmatik vaziyatda shaxsni kasbi, gender farqi (erkak) asosida tavsiflaydigan *tergovchi yigit* birikmasi voqelashgan, bu birikma [I~O]=SBLSQiga oid [O_{sh.}~O_{sh.}]=SB variant qolipining [O_{k.}~O_{j/y.}]=SB oraliq shaklli hosilasidir. *Xotin kishining zulm bobida*

⁷³ Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар. Жилд I. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар. –Тошкент: Маънавият, 2000. – 256 б.

⁷⁴ Вохидов Эркин. Сайланма. I жилд. Ишқ савдоси. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 243 б.

⁷⁵ Орипов, Абдулла. Йиллар армони. Шеърлар ва дostonлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.– 592 б.; Орипов, Абдулла. Менга хуш хабар айт. Шеърлар.– Тошкент: Маънавият, 2009. –128 б.

⁷⁶ Раҳмон, Шавкат. Сайланма.– Тошкент: Шарқ, 1997. –384 б.

⁷⁷ Шукур, Эшқобил. Ҳамал айвони. Шеърлар.– Тошкент: Шарқ, 2002. –320 б.

⁷⁸ Малик, Тоҳир. Шайтанат. (5-китоб). – В.60. http://library.ziyounet.uz/uz/book/index/27?Book_page=4

o'nta erkakka dars bera oluvini tasavvur etishning o'zi dahshatli hol...⁷⁹ *Xotin kishi* – [O_{sh.}~O_{sh.}]=SB variant qolipi hosilasi gender xususiyatni aniqlashtiradi.

Pragmatik vaziyatni tavsiflaydi: Sen azob, azob deysan-u, lekin senga dushmanlaringdan ko'ra ko'proq do'st deb yurganlaring zarar yetkazdilar. Chunki dushmandan ehtiyot bo'lasan, ammo *do'stning dushmanligidan* qutulish qiyin...⁸⁰ *Do'stning dushmanligi* – [I^{k.k.}~I^{e.k.}]=SBLSQiga oid [I^{q.k.}~I^{e.k.}] qurilmali hosila.

Illokutiv, perlokutiv aktlarni, iltifotni shakllantiradi, shaxsning munosabati va subyektiv bahosini ifodalaydi: Yigit uning *ahvolini sezib*: – *Derazani yopib qo'yaymi*, sovgotyapsizmi? - deb so'radi⁸¹. Illokutiv aktda fe'lli birikma iltifotni shakllantirgan: *Derazani yopib qo'yaymi?* Kommunikant shaxsiy munosabatini *Derazani yopaymi?* jumlasini orqali ifoda etishi mumkin. Lekin hokim a'zo mavqeyidagi fe'lning [yetakchi (-b/ib)+ko'makchi] shakli (yopib qo'yimoq) pragmatik ma'noni aniqroq ifodalay oladi. Bu nutq aktida *ahvolini sezmoq*, *derazani yopib qo'yimoq* [I^{k.k.}~F]=SBLSQi asosida voqelashgan.

So'z birikmasi nutq aktida pragmatik vazifa bajaradi va perifraza hosil qiladi: – Zerikmay o'tiribsizmi, ishqilib? - dedi mehribonlik bilan. – *Beminnat suhbatdoshim* bor, zerikishga vaqt yo'q, - dedi Soliyev ayvon to'rida turgan televizorga ishora qilib. – *Suhbatdoshingiz* soqovmi? - dedi Hamdam kulib. – *Bu suhbatdoshning* yaxshi tomoni shundaki, men eshitishni istagan paytda gapiradi, xohlamasam, soqovga aylanadi. *Beminnat suhbatdosh* – [I~O]=SBLSQiga oid [Sf~O]=SB variant qolipi hosilasi televizorni nomlovchi perifrazaning shakllantirgan. Nutq aktida uni *suhbatdosh*, *bu suhbatdosh* perifrastik ifodalari ham nomlagan.

Pragmatik vaziyatda obraz, obrazli ifoda hosil qiladi va nutqiy ta'sirchanlikni oshiradi: – Quy, anavindan. – Qaysi biridan? – *Erkakning xo'rozi* “*Napoleon*”dan *ichadi*-da. Baquvvat qilib quyaver, bufetchilarga o'xshab qo'llaring qaltiramasin... Adresant nutqida *erkakning xo'rozi* va “*Napoleon*”dan *ichmoq* ta'sirchanlikni ma'no ko'chishi asosida oshirgan. Zero, *erkakning xo'rozi* (muloqotda: *xo'rozi*) birikmasi metafora shakllantirgan ma'nosi bilan pragmatik ahamiyat kasb etadi. *Xo'roz* tovuq (parranda/jins)ning erkagi (turi)ni anglatadi, nutq aktida *erkakning xo'rozi* maskulinlik belgisi asosida gender xususiyati bo'rttirilgan shaxsni nomlaydi. Nutq subyektini fikr predmetini tasvirlashda so'zlashuv uslubida hissiy ta'siri kuchli, bo'yoqdor ifodani tanlagan. “*Napoleon*”dan *ichmoq* esa metonimiya asosida hissiy ta'sirchanlik, so'zlashuvga xoslik, xalqona ruh va jonli tasvirni hosil qilgan. Muhimi, til qurilishi [I~F]=SBLSQiga voqelanish imkonini bermasa, [I^{k.k.}~F]=SB xususiy qolipining [O^{ch.k.}~F] oraliq shaklli hosilasi “*Napoleon*”dan *ichmoq* ko'rinishini ololmas edi. [I~I]=SBLSQiga berilgan imkoniyat [I^{k.k.}~I^{e.k.}]=SB xususiy qolipining [O^{q.k.}~O^{e.k.}] oraliq shaklli *erkakning xo'rozi* hosilasini muloqot birligiga aylantiradi.

XULOSA

